

## TERMIZ" DAVLAT MUZEY-QO'RIQXONASI BALANISIDA BO'LGAN SOPOLITEPA YODGORLIGI TARIXI


B. Bo'riyeva

Termiz" davlat muzey-qo'riqxonasi kutubxona mudiri

**Annatsiya:** Ushbu maqolada Surxon vohasida olib borilgan tadqiqotlar natijasida qadimgi sopol idishlar ularning yasash texnikasi va nechanchi asrga oidligi, shu bilan birga o'z davrining yorqin madaniyati xususida so'z boradi. Surxondaryo vohasidagi Sopolitepa, madaniyati, O'zbekistonning janubiy hududlarida dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi jez davri qabilalarining ijtimoiy iqtisodiy, siyosiy va etnomadaniy rivojlanish holati arxeologik manbalarda aks etganligini e'tiborga oladigan bo'lsak bu madaniyat o'ziga xos tarixiy ahamiyatga egadir. Ushbu maqolamizda shu xususda so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Jez davri, Gardish qismi, Xochsimon, To'pbarggulsimon, to'g'nog'ichlar, Sopollitepa, Qal'a, ichki mudofaa, xilxona, me'moriy.

O'zbekiston xududida jez davri mil.avv. II ming yillik boshlarini o'z ichiga oladi. Xuddi shu davrda ikki turdagi mustaqil madaniyat shakllanib aniq ajraladi: o'troq dehqonchilik vohalaridagi madaniyat: ko'chmanchi dashtlar madaniyati o'troq dehqonchilik madaniyati dastlab Surxondaryo vohasidagi Sopollitepa madaniyati. O'zbekistonning janubiy hududlarida dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi jez davri qabilalarining ijtimoiy iqtisodiy, siyosiy va etnomadaniy rivojlanish holati arxeologik manbalarda aks etgan moddiy madaniyat majmuasi (mil. av. 2 ming yillik). Kelib chiqishi jihatidan qadimiy Sharq tamadduni bilan bog'liq bu madaniyat yodgorliklari O'zbekistonning Surxondaryo viloyati, qo'shni Tojikiston hududlaridan topib o'rganilgan (Sopollitepa, Jarqo'ton, Mulalitepa, Bo'ston.). Sopollitepa — Surxondaryo viloyatining (Muzrabod tumani) Sherobod cho'lini kesib o'tgan O'lanbuloqsoy yoqasiga joylashgan jez davriga oid arxeologik yodgorlik. U 1968-yil arxeolog L. Albaum tomonidan topilgan. 1969—74 yillarda A. Asqarov tomonidan o'rganilgan ning maydoni taxminan 4-5 ga (A.Asqarov). Uning 1 ga.ga yaqin markaziy qismi mudofaa devorlari bilan o'rab olingan. Qal'a atrofidagi maydonning kata qismi buzilib, paxta dalalariga aylantirilgan. Tepaning ustki qismida sopol sinikdari kalashib yotganligi uchun u mahalliy aholi orasida Sopollitepa deb atalgan. Sopollitepada o'tkazilgan arxeologik kazishmalar natijasiga ko'ra, uning markaziy qismi murabba (82×82 m.) shaklida qurilgan qal'adan iborat. Qal'aning tomonlari go'yo 3 qator mudofaa devorlari bilan o'rab olingan. Aslida esa, qal'ani o'rab olgan devorlar tizimi ichki va tashqi yo'laksimon qopqonlardan tashkil topgan bo'lib qal'a tashqi mudofaa chizig'ida tomonlarga parallel qilib 8 ta yo'laksimon qopqonlar joylashtirilgan. Qal'aning ichki mudofaa chizig'ining markaziga va har to'rt tomon burchaklariga bittadan, hammasi bo'lib 8 ta yo'laksimon qopqonlar joylashtirilgan. Yo'laksimon qopqon tizimining joylashish rejasiga ko'ra, qal'aga kirish darvozasi ham go'yo 8 ta. Aslida esa haqiqiy darvoza qal'a jan. tomonining markaziga joylashgan, qolgan darvozalar harbiy xavf tug'ilganda qopqon vazifasini bajargan. Qal'aning ichki mudofaa tizimida, yo'laksimon qopqonlar oralig'ida, har tomonda ikkitadan murabba shaklida qurilgan xonalar bo'lib, ularga qal'a ichki tomonidan eshik ochilgan. Aynan ana shu xonalar tomon qal'a ichiga joylashgan turar joy majmualari oralab tor ko'chalar o'tgan. Qal'a ichidagi turar joy majmualari uning ichki devorlari bo'ylab joylashgan. Ular ana shu ko'chalar orqali 8 ta mahallaga bo'lingan. Qal'a markazida esa ochik, maydon bor. Qal'a darvozasidan boshlangan keng yo'l va tor ko'chalar ana shu maydon bilan bog'langan. Bularning barchasi Sopollitepa jamoalarining mudofaa tizimini tashkil etgan.



Bunday murakkab me'moriy inshoot oldindan o'ylangan aniq reja va g'oya asosida qurilgan. Sopollitepa qal'a qo'rg'onining me'moriy tarhi protoshahar tarkibini eslatadi, uni maxsus o'ylab topilgan mudofaa rejasi esa amaliy tajribadan kelib chiqib, qal'a bosh rejasi g'oyasiga qat'iyo bo'ysundirilgan. Aynan, mana shunday mudofaa tizimi Sopollitepa xavfsizligini yukri darajada ta'minlay olgan. Sopollitepa mudofaa tizimini tashkil etgan uzun yo'laklar dastlab mudofaa inshooti vazifasini bajargan. Ularga mudofaa inshooti sifatida talab so'ngach, sekinasta boshqa maqsadlarda foydalanilgan. Masalan, shim. va sharqiy ichki yo'laklar xilxona sifatida foydalanilsa, g'arbiy va jan. O'laklar kulolchilik ustaxonalari sifatida foydalanilgan. Har bir mahallada urug' jamoalarining xilxonalari bo'lib, marhumlar mudofaa devorlari ostiga, uylarning poli ostiga ko'milgan. Urug' boshliklarining qabrlari esa, odatda, oila o'chog'i ro'parasida uchratiladi.

Sopollitepada o'tkazilgan qazish jarayonida 150 dan ortiq turar joy majmualari ochildi. Ularni mahalla bo'yicha taqsimlaganda har bir mahalla maydoniga 15—20 tagacha oilaviy turar joy majmualari to'g'ri keladi. Lekin, ular bir vaqtda bunyod etilmagan. Sopollitepada odamlar kancha vaqt yashaganligini o'rganish maqsadida uning har xil joylarida shurflar solindi. Shurf kesmalariga kura, mudofaa inshootlari va uyjoy majmualari poydevorsiz qurilgan. Oilaviy uyjoy majmualari ko'p xonali bo'lib, har bir oilaga qarashli ko'p xonali uyning biri devorining ostida mo'rili o'choq, ikkinchisida sandal o'rni yoki toza kulli qurbongoh chuqurchasi, uchinchisidan esa omborxona sifatida foydalanilgan. Bular oila birligini anglatuvchi muhim belgi edi. Bir necha shunday oila birliklari katta patriarxal urug' jamoasini tashkil etgan. Sopollitepa ana shunday katta patriarxal urug' jamoalaridan 8 tasini birlashtirgan qishloq jamoasi edi. Sopollitepa uylari va mudofaa inshootlari somon qo'shilgan xom g'ishtlardan qurilgan. Uy devorlari andavalar yordamida silliq kilib suvalgan (topilmalar orasida sopol andava ham bor), suvoq ustidan havorang ohak bilan okdangan.

Har bir patriarxal jamoa mahallasi qoshida ularning kundalik ehtiyojidan kelib chiqqan holda kulolchilik sexi va metall eritish ustaxonalari mavjud. Xonalarning ba'zi birlari to'qimachilik maqsadlariga moslab qurilgan. Ular keng va uzun bo'lib, to'quv dastgohini o'rnatishga mo'ljallab qurilgan. Ana shunday xonalarda urchuq toshlar, suyak taroqlar, tosh va sopol qadoqtoshlar ko'proq uchratilgan. Sopollitepada to'qimachilik ipak, paxta va hayvon yungi xom ashyosi asosida qurilganligi haqida dalolat beruvchi topilmalar bor.

Sopollitepa sopollari charxda yasalgan, 2 qavatli xumdonda pishirilgan. Ular nafis, jarangdor, naqshsiz. Kulollar sopol i. ch.da asosiy e'tiborni mutanosiblik va shaklga qaratgan. Ular juda sifatli uzun oyoqli vazalar, konussimon kosalar va nimkosalar, qadaxlar va xurmachalar, ko'za va ko'zachalar, xum va xumchalar, choynak va piyolalar, tog'ora va laganlardan iborat.

Sopollitepada jezdan qirg'ich va pichoqlar, bolta va teshalar, igna va bigiz, iskana va randa tishlari, ko'zgu va muhr, surmadon va xilma xil idishlar, bilaguzuk, soch turmaklagichlar, sirg'a va uzuklar, tillaqosh va qosh tergichlar ishlab chiqarilgan. Sopollitepada 138 ta qabr ochilgan. Ularning deyarli barcha ashyoviy dalillari butunligicha bizgacha yetib kelgan. Qabrlar hozirgi zamon qabrlaridan farq qilmaydi: ayvoncha, ayvonchalarning g'arbiy chetida, undan pastroqda lahad — jasadxona, uning og'zi yarim engashtirilib terilgan g'ishtlar bilan berkitilgan. Ayvoncha lahaddan chiqqan toza tuproq bilan to'lg'izilib usti suvab qo'yilgan. Birgina farqi Sopollitepa lahaddari kengroq, qabr og'ziga yaqin bo'sh maydonga turli idish tovoqlar, mehnat va boshqa harbiy qurollar, taqinchoq, bezak buyumlari va boshqa qo'yilgan. Lahadda erkaklar g'ujanak holda o'ng tomoni bilan, ayollar esa chap tomoni bilan yotibdi. Har ikki jins ham kafanda emas, balki hayotlik vaqtidagi bayramona kiyimda ko'milgan. Erkaklar qabrida mehnat va harbiy qurollar, ayollar qabrida turli xil taqinchoq va bezaklar uchraydi. Qablardan topilgan ashyolar tarkibiga qarab, marhumlarning kasbini aniq aytilish mumkin. Demak, sopollitepaliklar e'tiqodiga ko'ra, ular narigi dunyoda ham yashashda davom etishlarini tasavvur qilganlar. Mozordagi ashyolarning "boy va kambag'alligi" ularning yoshi va jamoada tutgan mavqei bilan boglik bo'lgan. Qablarda bitgadan, ba'zan esa ikkitadan skeletlar uchraydi. Ba'zida ayolni emizikli bolasi bilan ko'mish hollari ham uchraydi. Uzoq o'tmishdagi ajdodlarimiz udumiga ko'ra, ona o'lsa uning emizikli bolasi bilan ko'mish tabiiy hol hisoblangan bo'lsa kerak. Sopollitepada o'rganilgan juft qablarda erkak va ayol birga ko'milgan bo'lib, ularning birontasining suygida majburiy o'lim izlari uchramaydi. Demak, ular o'z ajali ila hayot bilan vidolashganlar.

Keyinroq, ko'chmanchi mulkdor chorvadorlar orasida ko'p xotinlik tabiiy holga aylangan harbiy demokratiya davrida "narigi dunyoda hayotning davom etishi" haqidagi ibtidoiy aqidaga ko'ra, skif podsholari va qabila sardorlari bilan ularning xotin va cho'rilaridan bir qismini majburiy o'ldirib birga ko'mish odat tusini olgan. Ana shu odatning dastlabki ildizlari Sopollitepada ko'zga tashlanadi, qablarda odam jasadi o'rnida mayda hayvon skeletlari uchratilgan, bunday qabrlar kenotaf nomi bilan ataladi. Ularga bedarak yo'qolgan marhum o'rniga jamoa dafn an'anasiga ko'ra, uning tirik jon mulkidan bir qo'yni o'ldirib ko'mish lozim topilgan. Sopollitepa kenotaf qabrlarining deyarli barchasi erkaklarga tegishli edi. Sopollitepa aholisi e'tiqodida quyoshga, olovga sig'inish o'z aksini topgan. Uning izlari ayrim xonalar maydonida uchratilgan sandal o'txonasi sifatida qabul qilingan toza kulli chuqurchalar edi. Bularning barchasi otashparastlar e'tiqodiga aloqador belgilar edi.

Sopollitepa jamoasi mazkur maskanda 150—200 yillar chamasi yashab, suv tanqisligidan, suvga qulay yangi unumdor yerlar qidirib, Sherobod daryoning qad. o'zani Bo'stonsoy soxillariga ko'chib ketadilar. Sopollitepa dehqonlari yangi joyni o'zlashtirib, O'zbekiston janubida eng qad. ilk shaharni barpo etadilar. U shahar O'zbekiston tarixida Jarqo'ton nomi bilan atalgan, Sopollitepa hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Askarov A., Sapallitepa, T., 1973;
2. Askarov A., Drevnezemledelcheskaya kultura epoxi bronzi yuga Uzbekistana, T., 1977;
3. Sarianidi V.I. I zdes govoril Zaratushtra Maskova 1992;
4. Surxon vohasi tarixiy va etnomadaniy manbalariga oid "I-tourism" platformasi asosida.